

KHOJA HASAN ANDOQI IS A GREAT REPRESENTATIVE OF MYSTICAL CULTURE

Nunnanova Gulzoda Bekpulatovna

Teacher of the Department of National Ideology, Fundamentals of Spirituality and Legal
Education, Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, Republic of Uzbekistan

Email id: g.nunnanova77@mail.ru

Annotation: This article discusses Khoja Hasan Andoqi, one of the students of Sheikh Yusuf Hamadoni's Sufi school, who is the spiritual father of the "Yassaviya", "Khojagon" and "Naqshbandi" sects.

Xoja Hasan Andoqiy tasavvuf madaniyatining yirik vakili

Nunnanova Gulzoda Bekpulatovna – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi,

Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy shahri,

O'zbekiston Respublikasi Email id: g.nunnanova77@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada mohiyatan "yassaviya", "xojagon" va undan kelib chiquvchi "naqshbandiya" tariqatlarining ma'naviy otasi hisoblanmish Shayx Yusuf Hamadoniyaning so'fiylik maktabida ta'lim olgan shogirdlaridan Xoja Hasan Andoqiy haqida fikr yuritiladi

Insonparvarlik g'oyalariga yo'g'rilgan ta'limotlar albatta inson va jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojlanishiga zamin yaratib, umuminsoniy qadriyatlar darajasida ahamiyat kasb etganligi kishilik jamiyati tarixidan ma'lum. Islom madaniyatining tarkibiy qismlaridan bo'lgan tasavvuf ta'limoti ham inson va jamiyatning ijtimoiy-axloqiy, madaniy hayotiga kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazgan diniy-falsafiy ta'limotlardan sanaladi. "Tasavvuf inson va insoniylik ustida bahs yuritadi. Islomning bosh g'oyasi va asosini tushuntirib beradi. Kishiga uning o'z nafsini borasidagi eng zarur ma'lumotlarni, boshqa insonlar bilan munosabatlaridagi eng muhim ijtimoiy odobni, banda bilan Rabbi orasidagi bog'lanishda unga foyda va zarar beradigan narsalarni o'rgatish orqali Islomni mohiyatini anglatadi"¹. Tasavvuf ta'limotining yirik namoyondasi, mutasavvif Yusuf Hamadoni ta'limotida, shuningdek Hamadoniyaning tasavvuf maktabida ta'lim olgan va o'z tariqat maktablariga asos solib, Markaziy Osiyo tasavvufi taraqqiyotini ta'minlagan shogirdlarining tasavvufiy qarashlarida xuddi shunday g'oyalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan, o'z taraqqiyoti davomida keng tarqalgan, bugungi kunda ham bir qator musulmon mamlakatlarida yashab kelayotgan, inson va jamiyat hayotida muhim ma'naviy-ma'rifiy ta'sir kuchiga ega xojagon-naqshbandiya, hamda yassaviylik tariqatlarining shakllanishi va rivojida Yusuf Hamadoniyaning so'fiylik maktabi va uning tasavvufiy-falsafiy ta'limoti muhim g'oyaviy asos bo'lganligini alohida ta'kidlash lozim. "Xoja Yusuf Hamadoniyaning islom olamining mashhur shayxlaridan biri. U Xuroson va Movarounnahr tasavvufining shakllanishi va rivoj topishida alohida mavqega ega bo'lgan. Islom tarixida muhim o'rin tutgan yassaviya va xojagon-naqshbandiya tariqatlari asoschilari bevosita Yusuf

¹ Muhammad Nurulloh Saydo al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. -T.: Movarounnahr, 2000. 4-b.

Hamadoniy izdoshlari hisoblanadi”. “Hasan Andoqiy, Abdullo Barraqiy, Abduxoliq G’ijduvoniyy va Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyning eng mashhur, e’tiborli va ishongan shogirdlari va xalifalaridan (o’rinbosarlaridan) hisoblangan. Yusuf Hamadoniy shogirdlaridan Andoqiy, Barraqiy, G’ijduvoniyy va Yassaviylarni ko’p hurmat qilar, ularning hujralariga tez-tez tashrif buyurib turur ekan”. Qator manbalar, xususan Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn ul-hayot”(“Obihayot tomchilari”), Doroshukuhning “Safinat ul-avliyo”, A.Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Tohir Eshonning “Tazkirai Naqshbandiya”, Abulqosim Samarqandiyning “Qandiya”, G’ijduvoniyyning ustoziga, atab yozgan “Maqomoti Xoja Yusufi Hamadoniy” va “Risolayi shayx ash-shuyux hazrati Xoja Abu Yusufi Hamadoniy” asarlarida hazrat Yusuf Hamadoniyning Xuroson orqali Movarounnahrda kelishi, Marv, Hirot, Urganch, Samarqand va Buxoroda bir necha yil yashab islom va tasavvuf ilmidan ashoblariga saboq berganligi, xalqni islomga chorlaganligi yozib qoldirilgan. Ingliz tadqiqotchisi Trimingem J.S. esa o’zining “Islomda so’fiylik mazhablari” kitobida “Xuroson, Turk va Hind hududlarida vujudga kelgan tariqatlar esa Abu Hasan Haraqoniy, Abu Yazid Bistomiy va Yusuf Hamadoniy nomi bilan bog’liq ekani aytiladi”².

Yusuf Hamadoniy so’fiylik maktabi ta’sir doirasining kengligi va darajasining yuqoriligiga urg’u berilishining sababi shundaki, musulmon diniy– falsafiy, tasavvufiy ta’limotlari tarixida alohida o’rin egallovchi Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari aynan mutasavvif ta’limini olgan xalifa(shogird)lari tomonidan shakllantirilgan. Mohiyatan “yassaviya”, “xojagon” va undan kelib chiquvchi “naqshbandiya” tariqatlarining ma’naviy otasi hisoblanmish Yusuf Hamadoniyning muridlari ko’p bo’lsada ularning ichida to’rtta xalifasi: Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyy, Abdulla Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiylar alohida o’rin tutadi. Shayx Yusuf Hamadoniydan keyin ular ustozlari o’rnida birmabir muridlar(shogirdlar)ga ustozlik qilib, xalqni ma’naviy-axloqiy kamoloti yo’lida xizmat etadilar. Bu haqda Abdulxoliq G’ijduvoniyyning ustoziga bag’ishlab yozgan “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” risolasida “Ey Abdulxoliq, Xoja Abu Ali (Formadiy)ning to’rtinchi xalifasi bo’lganim kabi, sen ham bizning to’rtinchi xalifamiz bo’lgaysen. Qarasam, ko’zlari yoshga to’lib turibdi. Men so’radim: “Sizdan keyin kim xalifa bo’lg’usi?” Shayx hazrat dedilar: “Bizdan keyin o’rnimizga Xoja Abdulloh Barraqiy o’tadi, keyin Xoja Hasan Andoqiy, undan keyin Xoja Ahmad Yassaviy. Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston diyoriga ketgach, sen xalifa bo’lasan”³. Quyida yuqorida nomlari zikr etilgan Yusuf Hamadoniyning xalifa (shogird)laridan Xoja Hasan Andoqiy haqida muayyan ma’lumotlarni keltirib o’tamiz.

Yusuf Hamadoniy kamolga yetgan yetuk shogirdlaridan bo’lgan Xoja Hasan Andoqiy tasavvuf madaniyatining yirik vakili sifatida faoliyat yuritdi. “Andoqiyning tasavvufda kamol topishi va yirik shayx sifatida shakllanishiga Yusuf Hamadoniy katta ta’sir ko’rsatdi”⁴. Xoja Hasan Andoqiy Yusuf Hamadoniyning tasavvuf maktabida Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulla Barraqiy va Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyy bilan birga ta’lim olganligi qator manbalarda qayd etilgan. “Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyyning ko’pgina safdoshlari va shogirdlari bugungi Navoiy viloyatining Karmana, Nurota, Qiziltepa, Xatirchi kabi mavzellarida yashab, komil insonni

² Тримингэм Д. Суфийские ордена в исламе.-Москва:Наука,1989

³ Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyy “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” T. “Yangi asr avlodi” 2005 14-bet

⁴ Mahmud Hasaniy, Mavjuda Razzoqova. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. Toshkent. 2003. 9-bet

tarbiyalashga, ma'naviyatimizning rivojlanishiga muhim hissa qo'shganlar"⁵. Faxriddin Ali Safiyning "Rashahotu ayn ul-hayot", buxorolik Nosiruddin al-Hanafiy al-Hasaniy al-Buxoriy qalamiga mansub fors tilidagi "Tuhfat uz-zoirin", Mavlaviy G'ulom Sarvar ibn muftiy G'ulom Muhammad al-Lohuriy qalamiga mansub fors tilidagi "Xazinat ul asfiyo" ("Musaffo kishilar xazinasi"), Tohir Eshonning "Tazkirayi Naqshbandiya", Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyning "Al-Ansob" ("Nasabnoma") kabi asarlar Xoja Hasan Andoqiyning hayot yo'li haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalardan sanaladi. Faxriddin Ali Safiyning "Rashahotu ayn ul-hayot" asarida Xoja Hasan Andoqiy haqida "Hazrati Xoja Yusuf quddisa sirruhuning ikkilanchi xalifalari tururlar va kunyatlari va odlari Abu Muhammad ibni Husayn Andoqiy turur"⁶ degan ma'lumot keltirilgan. Abu Muhammad Hasan ibn Husayn Andoqiy 1071 yilda Buxoroning Andoq qishlog'ida tug'ilgan. "Rashahot" muallifi Andoq qishlog'i haqida quyidagilarni yozadi: "Va Andoq dahaye (qishloq turur) Buxoroning uch farsaxlik yerida. Va Sam'oniyni "Ansob"da kelturubdurkim, Marvda yana deha turur shaharning ikki farsaxlik yeridakim, oni ham Andoq derlar va Andoq muarrabi Andoq turur. Va Xoja Hasan Buxoroning Andoqidani tururlar va marvning Andoqidani ermaslar"⁷ deb Andoqiyning tug'ilgan maskanlarini aniq ko'rsatib o'tadilar. Manbalarga tayangan holda Andoqiy hayoti va faoliyatini o'rganish yuzasidan keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, Xoja Hasan Andoqiy tavallud topgan qishloq Qiziltepa tumani Xo'ja Hasan qishloq fuqarolar yig'ini, "Toshrabot" xo'jaligidagi Andoq qishlog'iga to'g'ri keladi⁸.

Manbalarda keltirilishicha "Andoqiy Buxoroda madrasada ta'lim olayotgan vaqtda Shayx Yusuf Hamadoniyni Buxoroga keladilar. Yusuf Hamadoniyning ta'rifini eshitgan Andoqiy shayx huzuriga keladi. Yusuf Hamadoniyni uni muridlikka qabul qilib, ularga ham zikr aytishdan ta'lim beradi"⁹. Yirik alloma, tarix va hadis ilmlari bilimdoni bo'lgan As-Sam'oniyni o'zining "Al-Ansob" (Nasabnoma) kitobida Andoqiy haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi "Men avval Marvda Yusuf Hamadoniyni quddisa sirruhuning xonaqohlarida edim. Ular bilan suhbatlashdim (ya'ni Andoqiy bilan), lekin ular (Andoqiy)ni tanimadim. O'sha vaqtda Buxoroga bordim, ular bilan uchrashib suhbatida bo'ldim"¹⁰. Andoqiyning ustozini Yusuf Hamadoniyni nafaqat tariqat ilmini, balki zamonasining boshqa fanlarini ham o'rganganligini "Ansob"dagi "Ul zoti muborak (Andoqiy) meni bag'oyat ikrom bilan kutib oldilar. Ulardan tabarruk sifatida biroz hadis o'rgandim. Ular hadisni shayximiz va ustozimiz Yusuf al Hamadoniyni o'rgangan edilar" degan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Oz fursatdagi riyoziyotdan so'ng Andoqiyning tariqat yo'lidagi martabalari oshib, yuksak maqomga erishganligini "Rashahot" muallifi shunday izohlaydi "Andak fursarda davomli mashg'ullikdin ishlari martabag'a etibdurkim, kayfiyati azim g'olib bo'lur erdi va muhimmoti zaruriylaridan ko'bi ta'viq qaydig'a tushar erdi, avlod va

⁵ O.S.Hayitova. Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar.T. "Yangi asr avlodi", 2004, 19-bet

⁶ Faxriddin Ali Safiy. "Rashahot ayn ul-hayot"("Obihayot tomchilari"). Tarjimon Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq. "Abu Ali Ibn Sino" nashriyoti. T.: 2004. 21-bet.

⁷ O'sha asar.21-bet

⁸ Qarang: Mahmud Hasaniy, Mavjuda Razzoqova. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T. "Fan" nashriyoti, 2003.

⁹ Xojai Jahon. B-21

¹⁰ Iqtibos M. Hasaniy, M. Razzoqova. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy nomli risoladan olindi.

azvojlarning maishatlariga darkor nimarsalar muyassar bo'lmas erdi"¹¹ yani tariqat amallarini ado etishga berilib, ahli oilasining ahvoriga e'tibor bermay qo'yadi. Bu ahvoldan xabar topgan ustoz Shayx Yusuf Hamadoniy "Sen darvishsan, lekin oilang ham bor. Riyoziyotga haddan ziyod berilib, ularni nochor ahvolga solib qo'yish, bu aqlli odamning ishi emas. Bu ishing aqlga ham, shariatga ham to'g'ri kelmaydi",-deydi. Andoqiy ustoziga shunday javob beradi "Mening holim bir vajhedurkim, boshqa hech ishga majolim yo'q turur". Bu javobdan shayxning jahli chiqib, Andoqiyga tanbeh beradi. Shu oqshom Shayx Yusuf Hamadoniy Haq Ta'oloni tushlarida ko'radilar. Haq Ta'olodan shunday xitob keladi "Ey Yusuf men senga aql berdim va Hasanga buyuk aql va ko'ngilni berdim". Ali Safiyning xabar berishicha Xoja Yusuf bu tushni ko'rganlaridan so'ng Andoqiyni o'ziga juda aziz tutdi va umrining oxiriga qadar unga dunyoviy ishlardan so'z aytmadilar. Andoqiy butun g'ayratini faqat tariqat yo'liga sarfladi va o'z zamonasining orif shayxlaridan biri bo'ldi. Bir necha yillar ustoz Shayx Yusuf Hamadoniy huzurida bo'lib, safarlarda ham ustoziga hamrohlik qiladi. Shayx Yusuf Hamadoniy dunyodan o'tishlaridan (1140 yilda) oldin "Meni Xoja Abdulloh Barrafiy g'usl qildirsing, qabrga Hasan Andoqiy qo'ysin"¹² deya vasiyat qildilar. Bu ustozning shogirdiga ko'rsatgan inoyati edi.

Olimlardan Mahmud Hasaniy, Mavjuda Razzoqovalar tomonidan qo'lyozma asarlarga tayangan holda nashr etilgan Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy nomli risolada Tohir Eshonning "Tazkirayi Naqshbandiya" asarida Andoqiyning zamonasining buyuk shayxlaridan ekanligini ta'kidlash bilan birga, Andoqiyni "Ul buzrukvoru ahli xaloyiq va sohibi asrori daqoyiq, orifi nekfitrat, mavsuf ba sifati shariat, va tariqat va haqiqat, imomi taqiyu naqiy, a'lo hazrati xoja Hasan Andoqiy (r.a.)durlar" bergan ma'lumotlari Andoqiyning o'z zamonasining qalbi pok, ma'rifatli orif shayxi va olimi bo'lganligini ifodalaydi. Xoja Hasan Andoqiyning ustozidan ta'lim olgan Qur'on Karim, Hadis, fiqh, aqid va tasavvufiy ilmlarini insonlarga o'rgatgan, ularni ma'nan kamolga yetishi uchun harakat etishga chorlagan. Manbalarda Andoqiyning hayoti va faoliyati, ta'lim olishi, tasavvufiy g'oyalari bilan birga vafotlari va qabrlarining joylashgan o'rinlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Bu haqda Faxriddin Ali Safiyning "Rashahotu ayn ul-hayot" va Tohir Eshonning "Tazkirayi Naqshbandiya" asarlarida ma'lumot berilgan. "Rashahot"ga ko'ra Andoqiyning "vafotlari ramazon oyining yigirma oltisida. Sana besh yuz ellik ikkida (1158) ramazon oyining yigirma yettilanchi kechasida manzili muborakka nuzul ettilar. Va qabri muboraklari Buxoroda Gulobod darvozasining tashqarisida, Shayx Abubakr Gulobodiyning maqbaralarida"¹³ deyilgan. Manbada bayon etilgan hudud hozirda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumaniga qarashlidir. Qiziltepaning Toshrobot mavzeida Andoq qishlog'i bo'lib, 1997 yildan boshlab 30 ming aholi yashayotgan Zarafshon daryosi bo'yidagi bu manzil Andoqiy sharafiga Xo'ja Hasan deb atalmoqda¹⁴.

Yusuf Hamadoniy shogirdlariga diniy-tasavvufiy va irfoniy bilimlardan ta'lim berish asnosida "Hazrati payg'ambar sallallohu alayhi vassalamni ishorati bo'lgani bois, yo'li pok bu

¹¹ Faxriddin Ali Safiy. "Rashahot ayn ul-hayot"("Obihayot tomchilari"). Tarjimon Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq. "Abu Ali Ibn Sino" nashriyoti. T.: 2004. 21-bet.

¹² Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni "Maqomoti Yusuf Hamadoniy" T. "Yangi asr avlodi" 2005 29-bet.

¹³ Faxriddin Ali Safiy. "Rashahot ayn ul-hayot"("Obihayot tomchilari"). Tarjimon Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq. "Abu Ali Ibn Sino" nashriyoti. T.: 2004. 21-22-bet.

¹⁴ Qarang: Mahmud Hasaniy, Mavjuda Razzoqova. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T. "Fan" nashriyoti, 2003.

buyuk shayx ham do'stларini va o'ziga ergashganlarni, ya'ni Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Aliyyona bu faqir Abdulxoliq ibn Abduljamil va xizmat qiluvchi boshqa darveshlarni ham nabaviy shariat shohko'chasiga chaqirardilar. Nafsoniy orzularga buyinsunishdan, bid'atdan, shariatga qarshi chiqishdan, botil va fitna ahlining yo'lidan va muqallidlarning taqlidlaridan muhofaza etar, ogohlantirardilar"¹⁵- deb ta'kidlaydi Xojai Jahon risolada. Yusuf Hamadoniy avvalo, o'zlari bu talabga rioya qilib, shogirdlarini shu yo'ldan boshlaganlar. Yusuf Hamadoniy ma'naviy axloqiy qarashlaridagi ushbu jihatlarni bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoni kabi shogirdlar ham ma'naviy kamolot darajasiga erishishda rahnamolik qilgan ustozlarini buyuk ehtirom bilan ko'ngildan sevuvchi va seviluvchi, sidqu safo ahliga mansub bir inson sifatida qadrladilar, bergan ta'limlarini doimo yodda tutib, tariqat ahllari va insonlarni ulug' siymo Yusuf Hamadoniydek hayot yo'lidan borishga da'vat etadi. Darhaqiqat tasavvuf ta'limotidagi insonparvarlik, adolatli bo'lish, hayot tarzida halollik va pokdomonlikni muhim mezon sifatida olinganligi, nafsda sokinlik va mo'tadillikka rioya etish, kibrdan xoli ko'ngil sohibi bo'lishlikka intilish kabi g'oyalar o'z davrida va bugungi kunda ham, haqiqat va Allohga mo'min bandalikni istovchi odamlar qalbidan joy topdi. Zero insonning zohiran va botinan poklanishi, ruhiy-axloqiy kamoloti, ilohiy ishq bilan yuksalib borib, Alloh tajalliysi zuhur etadigan ulug' darajada qalban tozarish, botinda Xoliq bilan, zohirda esa xalq bilan bo'lib, jamiyat va insoniyat taraqqiyoti yo'lida xizmat etish, insonlar o'g'irini yengil qilish bu ta'limotning asosiy g'oyalaridir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Тримингэм Д. Суфийские ордена в исламе.-Москва:Наука,1989
2. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni "Maqomoti Yusuf Hamadoniy" T. "Yangi asr avlodi". 2005
3. Faxriddin Ali Safiy. "Rashahot ayn ul-hayot"("Obihayot tomchilari"). Tarjimon Xudoybergan ibn Bekmuhammad. Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriddin Umrzoq. "Abu Ali Ibn Sino" nashriyoti. T.: 2004
4. Muhammad Nurulloh Saydo al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. -T.: Movarougnnahr, 2000. 4-b.
5. Mahmud Hasaniy, Mavjuda Razzoqova. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. Toshkent. 2003
6. O.S.Hayitova. Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar.T. "Yangi asr avlodi", 2004

¹⁵ Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni "Maqomoti Yusuf Hamadoniy" T. "Yangi asr avlodi" 2005 12-bet